

## THEORETICAL BASES OF DEVELOPMENT OF NON-TRADITIONAL EXERCISES AND TASKS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE (State Language)(Example of A 10th Grade Textbook)

Khodzhieva Iroda Zokirjon qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Named After Alisher Navoi Uzbek Language And Literature 2-Year Master's Degree

### ANNOTATION

This article discusses the need for modern, non-traditional exercises and tasks in teaching the Uzbek language in schools with a foreign language of instruction, a modern approach to language education, the development of language skills, a school of language education. education and today's view of this goal, the priority of developing the language competence of students in various contexts, the relevance of developing exercises and tasks.

**Keywords:** foreign language schools, exercises and assignments, language skills, competency-based approach, language use in various situations.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim o'zga tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fanini o'qitishda zamonaviy, noan'anaviy mashq va topshiriqlarga bo'lgan ehtiyoj, bugungi kunda til ta'limiga yondashuv, lisoniy malakalarni rivojlantirish, til o'qitishning maktab ta'limidagi maqsadi va bu maqsadga bugungi kundagi qarash, o'quvchilarda turli sharoitlarda tildan foydalana olish kompetensiyasini rivojlantirishning ustuvor ekanligi va mashq va topshiriqlar ishlab chiqishning dolzarbligi xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim o'zga tilda olib boriladigan maktablar, mashq va topshiriqlar, lisoniy malakalar, kompetensiyaviy yondashuv, tildan turli vaziyatda foydalanish.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается необходимость современных, нетрадиционных упражнений и заданий при обучении узбекскому языку в школах с иностранным языком обучения, современный подход к языковому образованию, развитие языковых навыков, школа языкового обучения. образования и сегодняшний взгляд на эту цель, приоритетность развития языковой компетенции учащихся в различных контекстах, актуальность разработки упражнений и заданий.

**Ключевые слова:** школы иностранных языков, упражнения и задания, языковые навыки, компетентностный подход, использование языка в различных ситуациях.

### INTRODUCTION

Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda, turli sohalarda turli yangiliklarni ko'rishimiz mumkin, darsliklarga qo'yilayotgan talab va berilayotgan takliflar ham aynan yangilikka, yangi yondashuvlarga asoslangan. Ta'lim o'zga tilda olib boriladigan maktablarda o'qitiladigan O'zbek tili (Davlat tili) darsligi ham ana shunday. Bugun ko'p ma'lumotlarni berish, undan so'ng

shular asosida savollar berilishi, yoki nuqtalar o'rnini to'ldirish, bular bajariladigan topshiriqlar turkumida asosiy o'rinda bo'lsa-da, biroq bugun o'quvchilarni, yoki har qanday til o'rganuvchini qiziqarli yo'l bilan keng hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirishiga e'tibor qaratilmoqda, "O'zbek tilini o'qitishda uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan samarali metodik yondashuvlar, zamonabop o'quv-usuliy majmualar, ommalashgan ilg'or tajribalar ulkan ilmiy-metodik boylik sanaladi. O'zbek tilini o'qitish ta'limida muayyan taraqqiyot bosqichlari kuzatilsa-da, o'zbek tilini o'qitish metodikasi global ta'lim imkoniyatlari, jahon standartlari bilan qiyoslanganda, taassufki, uning zaif jihatlari oydinlashib qoladi. Mana shu nuqtayi nazardan, mazkur yo'nalishda endilikda hal qilinishi lozim bo'lgan motivatsion, mazmun-mundarijaga aloqador, metodik hamda kadrlar bilan bog'liq yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud".

10-sinfning amaldagi O'zbek tili (Davlat tili) darsligini o'rganar ekanmiz, mavzular bo'yicha berilgan mashq va topshiriqlar asosan, rasm asosida suhbat, matn yuzasidan savollar tuzing yoki matn yuzasidan berilgan savollarga javob bering, nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib yozing, berilgan matn yuzasidan bahs-munozara o'tkazing kabi shakllarda tuzilgan. Biroq bugungi kunda "til o'qitish metodikasida talabani turli nutq vaziyatlariga, muloqot muhitiga tayyorlash, matn ustida ishlash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ish yuritish, fikr almashishda zarur bo'ladigan nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda". Shu maqsadda maktab darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning shakli va mazmunini jiddiy takomillashtirish, mantiqiy, ijodiy (kreativ), integratsiyaga ega, turli illustratsiyali mashq va topshiriqlarning yangi, zamonaviy ko'rinishlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilib, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Hindiston kabi mamlakatlarning til o'qitish metodikasidagi zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlaridan foydalanish asosida tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o'qish (reading), yozish (writing) ko'nikmalarini kontekstda berish masalalari o'rganib chiqilmoqda. Amerikalik journalist va moharrir Emily Kaplan (<http://www.emilykaplan.net/>) Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun 6 ta muhim strategiyalar haqida yozar ekan, bir yil davomida olib borgan tadqiqotlariga to'xtaladi. Uning strategiyalari ichida biz uchun muhim bo'lgani ikkinchisidir. Ularda aynan til o'rganuvchilar uchun taqdim etiladigan mavzular, mashq va topshiriqlardagi yondashuvlar aks etadi: "2-strategiya. "O'rganuvchilar, -deb yozadi E.Kaplan tilni (ingliz tilini) alohida, hayotiy vaziyatlardan ajratilgan holda o'rganmasliklari lozim, o'zlashtirishlari kerak bo'lgan til ko'nikmalarini turli real vaziyatlar orqali, kundalik hayotda foydalaniladigan mavzular doirasida, qolaversa, boshqa fanlar tarkibida o'rganib borishlari zarur". Bu haqda Texasning Katy tumani rahbari Valentina Gonsales barcha o'qituvchilari o'z fanlarining tilga oid jihatlaridan xabardor bo'lishi lozimligini taklif etadi va shunday deydi: "Agar biz matematikadan dars bersak, matematika tilini ham o'rgatamiz. Agar biz Tabiiy fanlarni (Science) o'rgatsak, unda ana shu fan tilini o'rgatamiz. Boshqacha qilib, aytganda, matematika (yoki boshqa har qanday fan) o'qituvchilari matematikaning notanish lig'atlarini – qo'shish, ayirish, ko'paytirish, yechish – matematik ko'nikmalarni o'rgatayotgan bir vaqtda o'rgatib ketishlari maqsadga muvofiq". Darhaqiqat, bu alohida soha emas, o'rganib tugatish mumkin bo'lgan. U barcha sohalarida o'z xususiyati bilan mavjud. Matematika, iqtisod, meditsina, kimyo, biologiya va boshqalar. Umuman til o'qitishda bularning barchasini qamrab olib bo'lmaydi, ayrim mavzular tarkibida ko'rib o'tish mumkin.

Xususan, 10-sinf darsligiga qaytadigan bo'lsak, "O'zbekiston olimlari", "San'at va madaniyat", "Tabiat va ekologiya", "Dunyo taomlari" "O'zbekiston havo yo'llari" kabi bir qator mavzular va ularga doir mashq va topshiriqlar to'plami berilgan, lekin barchasida mazmun bir xil savollarga javob berish, yoki matn yuzasidan savollar tuzish, nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yish. Odatda, insonda mavhum narsalar yoki tushunchalar haqida tezda fikr shakllanavermaydi, bir oz muddat kerak bo'ladi. Savollarga javob berish va savollar tuzib chiqish ham xuddi shunday, qaysidir ko'nikmani shakllantirishi mumkin, biroq keyingi mashqlarni bajarish uchun motivatsiya bermaydi. Asosiy vaqt o'ylashga, fikrlarni tartiblashga sarflanadi. Shu maqsadda, mashq va topshiriqlarga aniq, ixcham, ijodiy, mantiqiy, asosiysi keyingi topshiriqni bajarish istagiga motivatsiya bera olish jihatida yondashish lozim.

Namuna sifatida AQSh, Buyuk Britaniya til malakalarining darslikda berilish holatlarini kuzatadigan bo'lsak, GRAMMAR (gramatika), VOCABULARY (lug'at, so'z boyligini tekshirish), PRONUNCIATION (talaffuz) nomlari bilan alohida ajratilgan bo'limlar bo'lib, unga 4 lisoniy malaka singdirilgan. Masalan, Grammar nomli bo'limda asosiy e'tibor yozish, Vocabularyda o'qish, Pronunciationda esa tinglab tushunish va gapirish malakalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar berilib, bu topshiriqlarning mazmuni malakalarni bir-biri bilan integratsiya qilishini ta'minlaydi. Sababi Vocabularyda berilgan matnlar o'qish malakasini oshirishi bilan birga tinglab tushunish va yozish malakalari uchun ham xizmat qiladi. (True or Falce, Write sentences, read the text and choose the correct answer kabi mashqlar). Til ta'limidagi integratsiya xorijiy adabiyotlarda aks ettirilishi bilan birga mamlakatimizda Ona tili ta'limida (yoki O'zbek tili) ham mavjud. Umuman olganda, til malakalari integratsiyasini biz mashq va topshiriqlarning mazmunan birlashtirilgan holda berilishida ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda o'zbek tili fani yuzasidan Milliy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan zamonaviy mavzularga har tomonlama illustratsiyaga, ijodiylik va mantiqiylikka ega mashq va to'pshiriqlar to'plamini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, til o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad: "O'quv maqsadini aniq belgilash umumiy holatda yakuniy maqsad hamda har bir darsda ko'zda tutilgan maqsad demakdir. Bizda o'rta ta'limda ona tili ta'limi avvalboshdan bolani ona tilini yaxshi o'zlashtirishi, uni turli sharoitlarda to'g'ri qo'llay olishini, bir so'z bilan aytganda, bolaning til qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi". Bu o'zga tilli maktablar uchun ham xuddi shunday bo'lib, tildan turli sharoitlarda foydalana olish kompetensiyasining rivojlanishini ta'minlaydi. "Biroq so'nggi bir necha o'n yilda ona tilini o'qishdan asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish bo'lib qoldi. Shuning uchun ham maktab o'quvchisi ona tili ta'limining yakuniy natijasini belgilab beruvchi davlat imtihonida yoziladigan inshoga emas, oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun topshiriladigan muqobil javobli test savollariga jiddiyroq tayyorlandi. Bu yerda ushbu ikkala hal qiluvchu imtihonning bir-biridan farqli ko'nikmalarni tekshirishi ham ahamiyatlidir, ya'ni davlat imtihonida bolaning yozma nutq qobiliyati tekshirilsa, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida bolaning, asosan, grammatikaga oid bilimi tekshiriladi". Aynan mana shu holat nafaqat Ona tili ta'limiga balki ta'lim o'zga tilda olib boriladigan maktablarda O'zbek tili o'qitish bilan ham bog'liq. Sababi o'quvchilarning asosiy maqsadi tildan foydalanishni o'rganish emas, grammatik bilimlar orqali testdan yuqori natija qayd etish bo'lib qoldi. "Davlat imtihonining ahamiyati

o'рта ta'limni yakunlaganlikka oid hujjat – shahodatnomaga ega bo'lishni hal qilsa, kirish imtihonlari oliy ta'lim olish huquqini beradi. O'рта ta'limni unga jalb etilganlarning deyarli hammasi yakunlash imkoniga ega bo'ladi. Oliy ta'lim olish imkoni esa cheklangan miqdordagi kishiga nasib etadi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarining maktabni bitirish imtihonlaridan muhimroq sanalashini ta'minlaydi. Natijada, maktabdagi fan o'qituvchilariga nisbatan o'quv markazlaridagi kirish imtihonlariga tayyorlovchi o'qituvchilarning faoliyati jamiyatda yaxshiroq qadrlana boshlanadi, chunki maktab ta'limining maqsadi OTMga kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'tish emas, balki, yuqorida aytib o'tilganiday, bolaning til qobiliyatini rivojlantirish.

Rivojlangan til qobiliyati aynan nima ekanligi, u qanday talablarga javob berishi kerakligi haqida esa aniq belgilangan ma'lumot yo'q. To'g'ri, davlat ta'lim standarti, u asosidagi malaka talablari har bir fan doirasida ishlab chiqilgan, ammo qobiliyatiga qo'yiladigan talab aniq belgilab qo'yilmagan jamiyatda qandaydir ishga kirishda til qobiliyatiga qo'yiladigan talab aniq belgilab qo'yilmagan. Maktabni bitirgan bolalar ona tili qobiliyatining rivojlanganlik darajasi mavhum qolsa-da, oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilarning grammatik bilimiga qo'yilgan talab nisbatan aniq: maktab darsliklarida aytib o'tilgan har bir termin va tushunchani bilishi shart. Mana shu holat o'quv maqsadining aniq belgilanishi ta'limning samarali bo'lishi ga olib kelishiga misol bo'la oladi, ya'ni kirish imtihoniga tayyorlash degan aniq maqsad borligi jamiyatda maktabdagi ona tili darsidan repetitor yoki o'quv markazidagi dars ustunroq ko'rinishiga olib keldi". O'quvchilar uchun darslikda berilgan mashq va topshiriqlardan ko'ra ko'proq testda tushishi mumkin bo'lgan grammatikani o'rganish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda 4 lisoniy malakani shakllantirish maqsadida berilayotgan topshiriqlardan grammatik mavzuga oid savollar o'quvchilarni jiddiyroq qiziqtiradi.

Xulosa qilib aytish joizki, O'zbek tili darsligida ham berilayotgan mashq va topshiriqlarni izchil takomillashtirish, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish va jiddiy yondashishni shakllantirish maqsadida noan'anaviy shakl, mazmun va mantiqiylikka ega, fanlar doirasida integratsiyalasha olgan mashq va topshiriqlar to'plamini yaratish bugungi davr talabi sanaladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юсупов А.А. Ўзбек тили дарсларида нутқий кўникмаларни ривожлантирувчи замонавий ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. бўй. фалсафа доктори (PhD) ... дис. – Нукус: ҚДУ, 2021. – 132 б.
2. Azimova I.A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: til ta'limifa oid fanlar moduli. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2020-yil.
3. <https://optolov.ru/uz/kuhnya/integraciya-v-sfere-obrazovaniya-osushchestvlenie-principa.html>
4. <https://shokiryuldash.blogspot.com/2020/04/ona-tili-talimida-lisoniy-malakani.html?m=1>
5. <https://fayllar.org/21-asr-konikma-va-malakalari-ular-nimani-taqozo-etadi-konikma.html>
6. <http://www.emilykaplan.net/>